

**Kamoliddin Rahmatov****"Yig'latur"**

Visit "[Yig'latur](#)" on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com)

Qiyndi bu ishq meni, tun kechalar zor yig'latur,  
Ayta olmayman, netay, ham nomusu or yig'latur.

Ushshog'u segoh mening ruhimni sel qilgay yana,  
Bo'ldi, bas deyman, quloq solmay yana tor yig'latur.

Ba'zida aylab tavoze, qilsalar-ku muhtaram,  
Bu ulug' jonimni shum qilmay biror kor yig'latur.

Gul desam yonishi yo'q, bulbul desam honishi yo'q,  
Bu latif ruhimni aylab bunchalar xor yig'latur.

Ko'zlarimda shashqatordur yoshlarim, yo'lga qarab,  
Yig'Ê»latur man telbani, aqlu hushim bor yig'latur.

Qiyndi bu ishq meni tun kechalar zor yig'latur,  
Ayta olmayman, netay, ham nomusu or yig'latur.

Hajr o'tida kuydirib, ishqing o'tida yondirib,  
Ne sababdin, bilmadim, ko'nglimni Ra'no yig'latur.

Submitter's comments:Â

Ra'no Aliyeva she'ri.

Visit [Kamoliddin Rahmatov](#) page on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com), to get more lyrics and videos.